



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/8



www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 8
2026

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar

doi[®] digital object
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TARJIMON KOMPETENSIYALARINING TRANSFORMATSIYASI: GIBRID TARJIMON

Maxamataminova Azizabonu Dilshodbek qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya
fakulteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrası 1-kurs talabasi

Mukhammadaminova888@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining tarjimonlik faoliyatiga ta'siri hamda tarjimon kompetensiyalarining zamonaviy sharoitdagi transformatsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjimon kompetensiyasiga oid klassik va zamonaviy ilmiy yondashuvlar, jumladan Eugene Nida, Lawrence Venuti hamda PACTE modeli qiyosiy tahlil qilinadi. Neyron mashina tarjimasi, generativ sun'iy intellekt, kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalari va post-tahrirlash jarayonlarining tarjimon kasbiy faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt tarjimonning fundamental lingvistik va tarjimaviy bilimlarini almashtirmasligi, aksincha, uning kasbiy vazifalari va zarur kompetensiyalarini kengaytirishi asoslab beriladi. Natijada zamonaviy tarjimon kompetensiyalarini tizimlashtirish maqsadida Core Competence, Cultural Competence va Computational Competence komponentlaridan iborat 3C yondashuvi taklif etiladi. Mazkur model tarjimonning lingvistik va tarjimaviy tayyorgarligi, madaniyatlararo vositachilik salohiyati hamda sun'iy intellekt va raqamli tarjima texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini yagona konseptual tizimda birlashtiradi. Tadqiqot natijalari kelajak tarjimonlarini tayyorlash hamda tarjimon kompetensiyalarini baholashda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tarjimon kompetensiyasi, neyron mashina tarjimasi, post-tahrirlash, texnologik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, gibrid tarjimon, 3C yondashuvi.

Abstract. This article examines the impact of artificial intelligence on translation activities and the transformation of translator competence in the digital era. It reviews classical and contemporary approaches to translation competence, including the theories of Eugene Nida, Lawrence Venuti, and the PACTE competence model. Particular attention is paid to neural machine translation, generative artificial intelligence, computer-assisted translation (CAT) tools, and post-editing as key elements of modern translation practice. The study argues that artificial intelligence does not replace the translator's fundamental linguistic and translation competence but rather reshapes professional responsibilities by requiring additional technological and critical evaluation skills. Based on the comparative analysis, the paper proposes the 3C approach, consisting of Core Competence, Cultural Competence, and Computational Competence, as a

conceptual framework for the hybrid translator. The proposed model integrates linguistic knowledge, intercultural mediation, and technological literacy into a unified competence system suitable for AI-assisted translation. The findings may contribute to translator education, curriculum development, and future research on translator competence in the age of artificial intelligence.

Keywords: artificial intelligence, translator competence, neural machine translation, post-editing, technological competence, intercultural competence, hybrid translator, 3C approach.

Аннотация. В статье рассматривается влияние технологий искусственного интеллекта на переводческую деятельность и трансформация профессиональных компетенций переводчика в современных условиях. Анализируются классические и современные подходы к переводческой компетентности, включая концепции Юджина Найды, Лоуренса Венути и модель РАСТЕ. Особое внимание уделяется нейронному машинному переводу, генеративному искусственному интеллекту, системам компьютерной поддержки перевода (CAT) и постредактированию как важнейшим элементам современной переводческой практики. Обосновывается, что искусственный интеллект не заменяет фундаментальные лингвистические и переводческие знания специалиста, а расширяет его профессиональные функции, требуя развития технологической грамотности, критического мышления и навыков оценки результатов машинного перевода. На основе проведённого анализа предлагается концептуальный подход 3С, включающая Core Competence, Cultural Competence и Computational Competence, которая отражает ключевые направления развития компетенций гибридного переводчика. Предложенная модель объединяет языковую подготовку, межкультурное посредничество и владение современными цифровыми технологиями перевода. Результаты исследования могут быть использованы при подготовке будущих переводчиков и совершенствовании моделей оценки переводческой компетентности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, компетентность переводчика, нейронный машинный перевод, постредактирование, технологическая компетентность, межкультурная компетентность, гибридный переводчик, подход 3С.

KIRISH

XXI asrning 20-yillarida sun'iy intellekt (Artificial Intelligence, AI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi tarjimonlik faoliyatining mazmuni va amalga oshirilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, neyron mashina tarjimasi va generativ sun'iy intellekt vositalarining keng qo'llanilishi tarjima jarayonining tezligi va samaradorligini oshirish bilan birga, tarjimonning an'anaviy kasbiy

vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. So'nggi yillardagi kompetensiyaga asoslangan tadqiqot aynan AI tarjimonlarning ish jarayonini o'zgartirayotgani va texnik hamda notexnik kompetensiyalar zarurligini tahlil qiladi [1]. Shu sababli ayrim qarashlarda mazkur texnologik taraqqiyot tarjimon kasbining kelajakdagi ahamiyati pasayishi bilan bog'lanadi.

Biroq tarjimani faqat bir tildagi birliklarni ikkinchi tilga o'girish jarayoni sifatida talqin qilish bunday xulosaning beryoqlama ekanini ko'rsatadi. Eugene Nida tarjima jarayonida manba matnning mazmuni va ta'sirini maqsad tilida tabiiy ekvivalent orqali qayta yaratish muhimligini ta'kidlaydi [2]. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellektning tarjima jarayonidagi ishtiroki tarjimonning kasbiy rolini butunlay yo'qqa chiqarishdan ko'ra, uning faoliyat mazmuni va kompetensiyalarining transformatsiyasi sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt sharoitida tarjimon kompetensiyalarida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish va zamonaviy tarjimonning kasbiy modelini konseptual jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida mavjud tarjimon kompetensiyasi modellari va zamonaviy tarjima texnologiyalari o'zaro qiyoslanib, sun'iy intellekt sharoitida tarjima kompetensiyalarining o'zgarishi taklif etilayotgan 3C yondashuvi asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarjimon kompetensiyasi tarjimashunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mazmuni vaqt o'tishi bilan kengayib bormoqda. Dastlab tarjimonning kasbiy tayyorgarligi asosan manba va maqsad tillarini mukammal egallash hamda grammatik va leksik bilimlarga ega bo'lish bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda tarjimon kompetensiya ko'p komponentli va dinamik tizim sifatida qaraladi.

E. Nida tarjimani lingvistik birliklarning mexanik almashinuvi emas, balki manba matnning mazmuni va kommunikativ ta'sirini boshqa tilda qayta yaratish jarayoni sifatida talqin qiladi [2]. Ushbu qarash tarjimon faoliyatida til bilimlari bilan bir qatorda kommunikativ va pragmatik kompetensiyaning ham muhimligini ko'rsatadi.

L. Venutining tarjimon "ko'rinmasligi" haqidagi qarashlari esa tarjima jarayonida insonning qarorlari muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [3]. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt davrida ham dolzarb bo'lib, AI tomonidan yaratilgan tarjima natijalarining madaniy, kommunikativ va pragmatik muvofiqligini baholashda insonning professional mulohazasi zarurligini ko'rsatadi.

So'nggi tadqiqotlarda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning lingvopragmatik va madaniyatlararo xususiyatlari ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, AI matnlari grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, milliy nutq odobi, madaniy konnotatsiyalar va kontekstga mos pragmatik elementlarni to'liq aks ettira olmasligi qayd etilgan [4].

Tarjima kompetensiyasini tizimli ravishda o'rgangan PACTE tadqiqot guruhi kompetensiyani bir nechta o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan dinamik tizim sifatida izohlaydi. Ushbu modelda lingvistik, tarjimaga oid, instrumental va strategik kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etadi [5]. Biroq sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi instrumental kompetensiyaning mazmunini ham kengaytirmoqda. Zamonaviy tarjimon kompyuter yordamida tarjima qilish (Computer-Assisted Translation, CAT) vositalari, tarjima xotirasi (Translation Memory, TM), terminologik bazalar, mashina tarjimasi va generativ AI platformalaridan foydalanish bilan bir qatorda, mazkur vositalar natijalarini baholash va boshqarish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim.

Shu jihatdan, zamonaviy texnologiyalar tarjimon kompetensiyasining yangi tarkibiy qismlarini shakllantirayotgan bo'lsa-da, mavjud modellarni sun'iy intellekt sharoitidagi yuzaga kelayotgan kasbiy ehtiyojlar bilan qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy va qiyosiy tahlil hamda konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tarjimon kompetensiyasiga oid mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning asosiy tarkibiy qismlari zamonaviy tarjima texnologiyalari shakllantirayotgan yangi kasbiy talablar bilan qiyoslandi. Olingan natijalar asosida sun'iy intellekt davrida tarjimon kompetensiyasining asosiy yo'nalishlarini tizimlashtirish uchun 3C yondashuvi taklif etiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sun'iy intellekt texnologiyalarining tarjima jarayoniga kirib kelishi tarjimonning kasbiy vazifalarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash imkonini beruvchi neyron mashina tarjimasi tizimlari tarjimonning bevosita tarjimaga sarflaydigan vaqtini qisqartirishi mumkin. Natijada tarjimon faoliyatining markazida matnni noldan yaratish bilan bir qatorda, mashina tomonidan taklif etilgan variantlarni baholash, tahrirlash va takomillashtirish jarayonlari ham paydo bo'lmoqda. 2016-yilda Google tomonidan taqdim etilgan Google Neural Machine Translation (GNMT) tizimi neyron mashina tarjimasi rivojida muhim bosqichlardan biri bo'ldi. Wu va hammualliflarining tadqiqotida mazkur tizimning avvalgi mashina tarjimasi yondashuvlariga nisbatan sifat jihatidan sezilarli ustunliklari qayd etilgan [6]. Shu bilan birga, texnologik vositalarning rivojlanishi tarjimonning fundamental bilimlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirmaydi. Aksincha, mashina tarjimasi natijasida yaratilgan matnning aniqligi va maqsadga muvofiqligini baholash uchun tarjimon til, tarjima nazariyasi va matn tahlili bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi kerak.

Mashina tarjimasi natijasini tahrirlash, ya'ni post-editing, zamonaviy tarjimon faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mashina tomonidan

yaratilgan matn grammatik jihatdan to'g'ri ko'rinsa-da, unda kontekstual nomuvofiqlik, terminologik xato, uslubiy noaniqlik yoki pragmatik ma'noning buzilishi kuzatilishi mumkin. Shu sababli tarjimonning vazifasi faqat xatolarni tuzatish bilan cheklanmaydi. U tarjimaning kommunikativ maqsadi, auditoriyasi, janri va kontekstini hisobga olgan holda yakuniy matnni shakllantiradi. Generativ AI vositalari ish samaradorligini oshirishi mumkin bo'lsa-da, yakuniy natijani baholash va uning sifati uchun professional javobgarlik inson tarjimon zimmasida qoladi [7]. Bunday sharoitda tanqidiy fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjimon AI tomonidan taqdim etilgan variantni tayyor va mutlaqo to'g'ri natija sifatida qabul qilmasdan, uni manba matn bilan qiyoslay olishi, ma'no siljishlarini aniqlashi va zarur hollarda muqobil yechimlar ishlab chiqishi kerak. Shunday qilib, tarjimonning vazifasi nafaqat tarjima yaratish, balki mavjud variantlar orasidan kommunikativ jihatdan eng maqbul yechimni tanlashni ham o'z ichiga olmoqda. Tarjima jarayoni faqat lingvistik birliklarning bir tildan ikkinchi tilga ko'chirilishi bilan cheklanmaydi. Unda muayyan madaniyatga xos qadriyatlar, ramzlar, ijtimoiy me'yorlar va kommunikativ xususiyatlar ham qayta ifodalanadi. Ayniqsa, badiiy tarjimada metafora, kinoya, obrazlilik, muallif uslubi va estetik ta'sirni saqlash tarjimondan ijodiy tafakkur va madaniy sezgirlikni talab qiladi. 2026-yildagi yangi tadqiqot ham post-tahrirlashda register, pragmatik moslashuv va madaniy-kommunikativ adekvatlik masalalarini bevosita o'rganadi [8]. Bir tilda muayyan ma'no yoki hissiy ta'sirga ega bo'lgan birlik boshqa madaniy muhitda boshqacha qabul qilinishi mumkin. Nidaning dinamik ekvivalentlik konsepsiyasi nuqtayi nazaridan, tarjimaning muvaffaqiyati faqat grammatik aniqlik bilan emas, balki maqsad tilidagi auditoriyada manba matnga yaqin kommunikativ ta'sirning yuzaga kelishi bilan ham belgilanadi [2]. Demak, madaniyatlararo kompetensiya tarjimonning AI vositalari bilan ishlash jarayonida ham muhim kasbiy omil bo'lib qoladi.

Tarjimon kompetensiyasini tizimli ravishda tavsiflovchi mavjud yondashuvlardan biri PACTE modeli bo'lib, unda tarjima kompetensiyasi bir nechta o'zaro bog'liq komponentlar, jumladan, ikki tilli, ekstralingvistik, tarjimaviy bilim, instrumental va strategik kompetensiyalar majmuasi sifatida izohlanadi [5]. Biroq sun'iy intellekt va generativ texnologiyalarning jadal rivojlanishi tarjimonning instrumental kompetensiyasi mazmunini kengaytirib, AI vositalaridan foydalanish, post-tahrirlash va AI tomonidan yaratilgan natijalarni baholash kabi yangi ko'nikmalarni talab qilmoqda. Shu bilan birga, madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyati ham saqlanib qolmoqda. Mazkur o'zgarishlarni tizimlashtirish maqsadida mazkur tadqiqotda taklif etilayotgan 3C yondashuvidan foydalaniladi. Mazkur yondashuvda Core Competence tarjimonning lingvistik va tarjimaviy bilimlarini, Cultural Competence madaniy kontekstni anglash va madaniyatlararo vositachilikni, Computational Competence esa CAT vositalari, mashina tarjimasi, generativ sun'iy intellekt, post-tahrirlash va AI natijalarini baholash kabi texnologik ko'nikmalarni ifodalaydi. Ushbu uch yo'nalishning o'zaro bog'liqligi

sun'iy intellekt davrida tarjimon kompetensiyalarining kengayib borayotgan mazmunini tahlil qilish imkonini beradi.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tarjimonlik faoliyatining ayrim jarayonlarini avtomatlashtirish bilan birga, tarjimonning kasbiy rolini ham qayta shakllantirmoqda. Zamonaviy tarjimon uchun til va tarjima sohasidagi fundamental bilimlar bilan bir qatorda, madaniyatlararo tafakkur va texnologik savodxonlik ham muhim kompetensiyaga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari sun'iy intellekt davrida tarjimon kompetensiyalarining transformatsiyasi lingvistik va tarjimaviy bilimlar, madaniyatlararo kompetensiya hamda texnologik ko'nikmalarning o'zaro uyg'unligi asosida kechayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, taklif etilayotgan 3C yondashuvi zamonaviy tarjimon kompetensiyalarining mazmunini tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish uchun konseptual asos sifatida qo'llanishi mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt tarjimonning fundamental kasbiy bilimlari va insoniy kompetensiyalarini to'liq almashtirishdan ko'ra, tarjimon faoliyatida inson-AI hamkorligiga asoslangan yangi kasbiy faoliyat shakllarining rivojlanishiga zamin yaratmoqda [9]. Shunday qilib, kelajak tarjimoni sun'iy intellektni almashtiruvchi emas, balki undan samarali foydalanuvchi gibril mutaxassis sifatida shakllanishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yang, C., Hou, S., Chen, J., & Wider, W. (2026). Prioritizing Translator Competencies in the Era of Artificial Intelligence: A Delphi Method Study. Discover Education. <https://doi.org/10.1007/s44217-026-01642-3>
2. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: Brill.
3. Venuti, L. (1995). The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: Routledge.
4. Rahimova, D. (2025). Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda madaniyatlararo muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari. Til va adabiyot.uz, 22(68), 83–85.
5. PACTE Group. (2003). Building a Translation Competence Model. In F. Alves (Ed.), Triangulating Translation: Perspectives in Process-Oriented Research (pp. 43–66). Amsterdam: John Benjamins.
6. Wu, Y., Schuster, M., Chen, Z., Le, Q. V., Norouzi, M., et al. (2016). Google's Neural Machine Translation System: Bridging the Gap between Human and Machine Translation. arXiv. <https://arxiv.org/abs/1609.08144>
7. European Commission. (2024). Language Technologies and AI Translation Tools. Luxembourg: Directorate-General for Translation.

8. Abdelaal, N. (2026). Register and Pragmatic Adjustment in Post-Editing Machine-Assisted Translations: A Cultural-Pragmatic Study of Arabic-English Student Translators. *Humanities and Social Sciences Communications*. <https://doi.org/10.1057/s41599-026-07546-9>
9. Ergashev, B. (2025). Tibbiy tarjimada sun'iy intellekt: tarjimon insonlar bilan raqobatchimi yoki yordamchi? Shaxs ma'naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli, 789–796.

REFERENCES

1. Yang, C., Hou, S., Chen, J., & Wider, W. (2026). Prioritizing Translator Competencies in the Era of Artificial Intelligence: A Delphi Method Study. *Discover Education*. <https://doi.org/10.1007/s44217-026-01642-3>
2. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. Leiden: Brill.
3. Venuti, L. (1995). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge.
4. Rakhimova, D. (2025). Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarda madaniyatlararo muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari [Linguopragmatic features of intercultural communication in texts generated by artificial intelligence]. *Til va adabiyot.uz*, 22(68), 83–85.
5. PACTE Group. (2003). Building a Translation Competence Model. In F. Alves (Ed.), *Triangulating Translation: Perspectives in Process-Oriented Research* (pp. 43–66). Amsterdam: John Benjamins.
6. Wu, Y., Schuster, M., Chen, Z., Le, Q. V., Norouzi, M., et al. (2016). Google's Neural Machine Translation System: Bridging the Gap between Human and Machine Translation. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/1609.08144>
7. European Commission. (2024). *Language Technologies and AI Translation Tools*. Luxembourg: Directorate-General for Translation.
8. Abdelaal, N. (2026). Register and Pragmatic Adjustment in Post-Editing Machine-Assisted Translations: A Cultural-Pragmatic Study of Arabic-English Student Translators. *Humanities and Social Sciences Communications*. <https://doi.org/10.1057/s41599-026-07546-9>
9. Ergashev, B. (2025). Tibbiy tarjimada sun'iy intellekt: tarjimon insonlar bilan raqobatchimi yoki yordamchi? [Artificial intelligence in medical translation: Is it a competitor or an assistant to human translators?]. *Shaxs ma'naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli*, 789–796.